
TOSHLOQ TUMANIDA AHOLINING 30 YOSHDAN 70 YOSHGACHA QISMI SPORT SINOVLARIDAN O'TMOQDA

Aholining jismoniy qobiliyat va harakat faolligini aniqlash maqsadida yurtimizning barcha tuman va shaharlarida 30-70 yosh va undan katta yoshdagi aholi hamda mahalla tizimi xodimlaridan ixtiyoriy va maxsus talablar bo'yicha Jismoniy tayyorgarlik darajasi sport sinovlari qabul qilinmoqda.

Toshloq tumani Oila va xotin-qizlar bo'limi, Sport bo'limi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi hamkorligida joriy yilning 20-25 avgust kunlari barcha mahallalarda 30-70 yosh va undan katta yoshdagi aholi hamda mahalla tizimi xodimlaridan ixtiyoriy va maxsus talablar bo'yicha "Jismoniy tayyorgarlik darajasi sport sinovlari qabul qilish" reja grafigi ishlab chiqildi.

Bugun tuman Markaziy o'yingohida dastlabki sport o'yinlari, bellashuvlar bo'lib o'tdi. Sport sinovlari tezlik, kuch, chidamlilik va egiluvchanlik sifatlarini aniqlashga qaratilgan mezonlar bo'yicha qabul qilindi.

2024-08-20 17:34:16